e-ISSN 3060-5059
DOI: 10.67227


IJTIMOIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNAL

Scientific and Innovative Research in Social and Humanitarian Studies

Vol. 3 • Issue 11

2026



Founded in 2024

publishscience.uz | publish_science_journal@mail.ru

PEER REVIEWED • OPEN ACCESS

ISSN 3060-5059 (Online)
Article / Original paper https://doi.org/10.67227/jeeg9e25

MATN TUSHUNCHASINING LINGVISTIK TALQINI

Jumaniyazova Dilnoza Alimboyevna
Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti, dotsent, (PhD).
e-mail: annora1976@gmail.com **ORCID**: https://orcid.org/0000-0002-4804-0664

Annotatsiya.
Mazkur maqolada matn tushunchasining lingvistik talqinlari tahlil qilinadi. Matnning yozma yoki og‘zaki shaklda namoyon bo‘lishi, til yoki nutqqa mansubligi, «matn» va «diskurs» terminlari o‘rtasidagi munosabatlar hamda matnning til sathlari iyerarxiyasidagi o‘rni haqidagi ilmiy qarashlar qiyosiy jihatdan o‘rganiladi.
Kalit so‘zlar: matn, matn tushunchasi, matn lingvistikasi, og‘zaki va yozma nutq, diskurs, til sathlari, yaxlitlik, kogerentlik.

ЛИНГВИСТИЧЕСКАЯ ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ПОНЯТИЯ ТЕКСТА

Джуманиязова Дилноза Алимбоевна
Ургенчский государственный университет имени Абу Райхана Беруни, доцент, (PhD).

Аннотация.
В статье анализируются лингвистические интерпретации понятия текста. Проводится сравнительное изучение научных подходов к определению устной и письменной форм существования текста, его принадлежности к языку или речи, соотношения терминов «текст» и «дискурс», а также места текста в иерархии языковых уровней.
Ключевые слова: текст, понятие текста, лингвистика текста, устная и письменная речь, дискурс, языковые уровни, целостность, когерентность.

LINGUISTIC INTERPRETATION OF THE CONCEPT OF TEXT

Jumaniyazova Dilnoza Alimboyevna
Urgench State University named after Abu Rayhan Beruni, Associate Professor, (PhD).

Abstract.
This article analyzes linguistic interpretations of the concept of text. It provides a comparative examination of scholarly perspectives on the oral and written forms of text, its classification as a phenomenon of language or speech, the relationship between the terms “text” and “discourse,” and the position of text within the hierarchy of linguistic levels.
Keywords: text, concept of text, text linguistics, oral and written speech, discourse, linguistic levels, integrity, coherence.

Kirish. Ma’lumki, matn lingvistikasi doirasida olib borilgan tadqiqotlarda matn tushunchasiga turlicha ta’riflar berilgan. Jumladan, ayrim olimlar uni nutq parchasi, boshqalari yozma shakldagi nutq, yana bir guruh tadqiqotchilar esa og‘zaki yoki yozma nutq mahsuli sifatida talqin qiladi. Shuningdek, matnni nutq faoliyatining mahsuli yoki nutq faoliyatining o‘zi deb qaraydigan yondashuv ham mavjud. Bu borada tilshunoslar o‘rtasida yagona fikr shakllanmagan, aksincha, qarashlarning qarama-qarshiligi kuzatiladi.

Mazkur tadqiqotning maqsadi matn tushunchasiga oid asosiy qarashlarni tahlil qilish, ularning munozarali jihatlariga to‘xtalish hamda matn mohiyatini ifodalovchi talqinni ilmiy jihatdan asoslashdan iborat. Shu sababli, avvalo, matnning yozma va og‘zaki shakllari borasidagi masalaga e’tibor qaratiladi, “matn” va “diskurs” terminlarining o‘zaro munosabatiga to‘xtalinadi, matnning til yoki nutq birligi ekanligi o‘rganiladi, uning til sathlari ierarxiyasidagi o‘rni aniqlanadi hamda asosiy belgi-xususiyatlari ajratilib, matnga umumlashtiruvchi talqin beriladi.

Insonlar o‘rtasidagi muloqot matn orqali amalga oshadi, shuning uchun matn tushunchasining aniq talqini lingvistik tahlil uchun nazariy asos bo‘ladi. Matnning mohiyatini belgilash undan keyingi tadqiqotlarning yo‘nalishini ham belgilaydi. Ammo bu masalada yagona yondashuv shakllanmagan, shu sababli mavjud qarashlarni tizimlashtirish dolzarb hisoblanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Matn haqidagi umumiy talqinlar. Rus tilshunosi O. I. Moskalskaya matnni sintaktik sathning oliy birligi, nutqning tugallangan fikr bildiradigan asosiy birligi, nutq birligi emas, balki til birligi, lisoniy belgilar sistemasining qismi, alohida sathning nutqiy va lisoniy birligi sifatida tavsiflaydi. O. I. Moskalskaya matnga bir necha o‘zaro bog‘liq ta’rif beradi. Olima, avvalo, matnni sintaktik sathning oliy birligi sifatida baholaydi. Shu asosda u tugallangan fikrni ifodalovchi nutqning asosiy birligi gap emas, balki matn ekanligini ta’kidlaydi. Bu qarashga ko‘ra, gap sintaktik sathning quyi birligi bo‘lib, fikrning to‘liq ifodasi matn darajasida yuzaga keladi. Qolaversa, Moskalskaya matnni nutq birligi emas, balki til birligi deb hisoblaydi. Bunda matn nutqiy jarayonning oddiy mahsuli sifatida emas, tilning o‘ziga xos birligi sifatida talqin etiladi. Shundan kelib chiqib, matn lisoniy belgilar sistemasining tarkibiy qismi sifatida e’tirof etiladi, ya’ni u til sistemasidan tashqarida emas, balki uning ichida o‘rin egallaydi.

ISSN 3060-5059 (Online)

Shuningdek, olima matnni alohida sathning nutqiy va lisoniy birligi deb ta'riflaydi. Bu ta'rif matnning ikki tomonlama tabiatini, ya'ni ham til, ham nutq hodisasi ekanligini ko'rsatadi. Moskalskaya talqinida matn sintaktik sathning oliy birligi, tilning tarkibiy qismi hamda alohida sathning nutqiy va lisoniy birligi sifatida namoyon bo'ladi. M. V. Lyapon matnni jumlalarning o'zaro munosabatidan kelib chiquvchi xabar, so'zlovchining nutqiy faoliyati mahsuli va til sistemasining kommunikativ jarayonda muhim vazifa bajaruvchi eng yuqori pog'onasi deb ta'riflaydi [2].

Matnning yozma yoki og'zakiligi. Matnning shakli masalasida tilshunoslar o'rtasida ikki qarama-qarshi yondashuv shakllangan. Birinchi yondashuv tarafdorlari matnni faqat yozma nutq sifatida talqin etadi. Jumladan, L. M. Loseva matnni aniqlashda uning barcha turlariga xos belgilardan kelib chiqish zarurligini ta'kidlab, bu belgilar qatorida birinchi o'rinda yozma shaklni ko'rsatadi [3]. Tilshunos I. R. Galperin ham xuddi shu fikrni qo'llab-quvvatlab, matnni yozuvda qayd etilgan nutqiy asar sifatida baholaydi [4]. O'zbek tilshunosligida M. Hakimov ushbu qarashni davom ettirib, matnni og'zaki nutqdan farqli ravishda, adabiy til me'yorlari asosida shakllangan yozma nutq deb hisoblaydi [5]. Ko'rinadiki, bu yondashuvda matnning mohiyati uning yozuvda qayd etilganligi bilan bog'lanadi.

Ikkinchi yondashuvga ko'ra esa matn yozma shaklda ham, og'zaki shaklda ham mavjud bo'lishi mumkin. Mazkur fikr A. Hojiyev, A. Mamajonov, J. Lapasov kabi olimlar tomonidan bildirilgan [6]. Z. Ya. Turayeva matnni og'zaki yoki yozma nutq mahsuli sifatida talqin etadi. Shu bilan birga, olima og'zaki va yozma nutq o'rtasidagi farqni ko'rsatib, og'zaki nutqni bir yo'nalishli va qaytishsiz, yozma nutqni esa ko'p o'lchovli hodisa deb ta'riflaydi [7]. R. A. Karimova esa matnni grafik va og'zaki shaklda namoyon bo'luvchi nutqiy asar sifatida baholab, bunda og'zaki shaklning genetik asos ekanligini alohida qayd etadi [8]. Ko'rinadiki, birinchi yondashuv matnni yozuv bilan chegaralasa, ikkinchi yondashuv uni nutqning har ikki shaklini qamrab oluvchi hodisa sifatida ko'radi. Bu holat matn tushunchasini aniqlashda munozarali jihatlar mavjudligini ko'rsatadi.

Matn va diskurs. Matn tilshunosligida "diskurs" termini ham keng qo'llanadi, biroq uning ma'nosi yagona izohga ega emas. Ayrim tadqiqotlarda bu termin matn bilan bir xil tushuncha sifatida ishlatilib, ikkalasi bir-birining o'rnida qo'llanadi. Boshqa hollarda esa ular farqlanadi: matn yozma kommunikatsiyaga, diskurs esa og'zaki kommunikatsiyaga nisbatan qo'llanadi.

Terminning kelib chiqishiga e'tibor qaratilsa, u fransuzcha discours so'ziga borib taqaladi va "nutq", "so'zlash" ma'nolarini bildiradi. Ammo lingvistik adabiyotlarda "diskurs" ana shu asl ma'nosi bilan cheklanmaydi. U "frazadan katta birlik", "murakkab sintaktik butunlik", "matn komponenti", "sintaktik kompleks" kabi ko'plab terminlarga sinonim sifatida ishlatiladi [9]. Bu holat terminning ma'no doirasi keng ekanligini ko'rsatadi. "Diskurs" termini matn lingvistikasida yagona, umume'tirof etilgan talqinga ega emas: u bir o'rinda matnga teng, boshqa o'rinda uning bir qismiga yoki og'zaki shakliga mos keladi, yana boshqa o'rinda sintaktik birliklarning turli nomlariga sinonim bo'ladi.

Matnning til sathlaridagi o'rni. Tilshunoslikda uzoq vaqt davomida gap tilning eng yuqori birligi deb hisoblanib kelingan. Bu qarash tilning pog'onali tuzilishini tavsiflashda ustuvor bo'lgan. Jumladan, E. Benvenist gapni segmentlash, ya'ni qismlarga ajratish mumkinligini, biroq uni yuqoriroq sathning tarkibiy qismi sifatida qarab bo'lmasligini ta'kidlab, gapdan yuqori til sathi mavjud emasligini qayd etgan [10].

Keyingi tadqiqotlarda bu qarash qayta ko'rib chiqildi. M. Ya. Blox til birliklari va sathlari munosabatini yaxlit sistema sifatida o'rganib, gapdan yuqorida bir necha mustaqil gapning sintaktik birikuvi natijasida hosil bo'ladigan "suprapropozematik sath" mavjudligini asosladi [11]. Shu tariqa gap til sathlari ierarxiyasining oxirgi chegarasi emasligi ko'rsatildi.

Matnning alohida sath sifatida mavjudligi boshqa nuqtayi nazardan ham asoslanadi. O. L. Kamenskaya til tizimining tuzilishini inson bilimlari tuzilishi bilan qiyoslab, ikkala tizimda ham pog'onalanish mavjudligini aniqladi. Shu asosda matnni tilning alohida va eng yuqori sathi sifatida qarash mumkinligini ko'rsatdi [12]. Ko'rinadiki, til sathlari ierarxiyasida matnning o'rni masalasida ikki yondashuv farqlanadi. Birinchisi gapni tilning eng yuqori birligi deb biladi (Benvenist), ikkinchisi esa gapdan yuqori sath mavjudligini e'tirof etadi (Blox, Kamenskaya).

Matnning belgilari. Matnning asosiy belgilari masalasida turli tilshunoslar o'z qarashlarini bayon etgan. Amerika tilshunoslari Kats va Fodor matnni "gap-yadro" tarzidagi qismlari o'zaro pronominal va bog'lovchi so'zlar orqali bog'langan "uzun gap" deb ta'riflaydi [13]. Bu talqinda matn gaplarning oddiy yig'indisi emas, balki grammatik vositalar yordamida birlashtirilgan yaxlit sintaktik birlik sifatida ko'rinadi. Boshqa tadqiqotchilar esa matnning mazmuniy tomoniga ham e'tibor qaratadi. V. Dressler va O. I. Moskalskaya matnda yaxlitlik va kogerentlik bo'lishi shart ekanligini, ularsiz matn shakllanmasligini ta'kidlaydi [14]. Demak, bu olimlar nuqtayi nazaridan matnni matn qiladigan asosiy belgi uning qismlari o'rtasidagi mazmuniy va strukturaviy bog'lanishdir.

O'zbek tilshunosligida ham shunga o'xshash fikr bildirilgan. A. Mamajonov va M. Abdupattoyev matnni sintaktik hodisa sifatida ta'riflab, uni maxsus leksik-grammatik vositalar hamda umumiy mazmun talabi bilan birikkan, birdan ortiq mustaqil gapdan iborat butunlik deb biladi [15]. Bu ta'rifda ham matn gaplar yig'indisidan farqlanadi, chunki gaplarni birlashtiruvchi omil sifatida umumiy mazmun va grammatik aloqa ko'rsatiladi.

TAHLILLAR VA NATIJALAR

Keltirilgan ta'riflar bir-biridan farq qilsa-da, ularning barchasida matn qismlarining o'zaro bog'langanligi va yaxlitligi asosiy belgi sifatida e'tirof etiladi. Kats va Fodor bu bog'lanishni grammatik vositalar orqali, Dressler va Moskalskaya yaxlitlik va kogerentlik orqali, Mamajonov va Abdupattoyev esa leksik-grammatik hamda mazmuniy birlik orqali izohlaydi.

Yuqorida matnning shakli borasida keltirib o'tilgan fikr-mulohazalarga munosabat bildiradigan bo'lsak, matnni faqat yozma shaklga bog'lash asosli emas. Zero, kommunikatsiya faqat yozma shaklda kechmaydi, bunday cheklash matn nazariyasiga zid. Agar faqat yozma gap haqiqiy gap hisoblansa, og'zaki nutqdagi gapni gap emas deyishga to'g'ri keladi, bu esa mantiqqa to'g'ri kelmaydi.

ISSN 3060-5059 (Online)

Og‘zaki nutqning “qaytishsizligi” haqidagi dalil ham to‘liq asoslanmagan. Agar og‘zaki nutqda oldingi fikrlarga qaytish imkoni bo‘lmasa, odamlar bir-birini tushuna olmagan bo‘lardi. Muloqot ishtirokchilari xotirasida nutqning oldingi qismlari saqlanadi va ularga qayta-qayta murojaat qilinadi. Og‘zaki nutq faqat aytilayotgan paytda mavjud bo‘lsa-da, uni eslash va qayta tiklash mumkin.

Xalq og‘zaki ijodi namunalari, ya’ni qo‘shiqlar, ertaklar va dostonlar avloddan avlodga og‘zaki o‘tib kelgan. Ularni qog‘ozga tushirilgandagina matn deyish matn tushunchasini til doirasidan tashqariga chiqarib yuboradi. Og‘zaki va yozma nutq o‘rtasidagi uslubiy va strukturaviy farqlar (spontanlik va tayyorgarlik) esa birini matn, ikkinchisini matn emas deyishga asos bo‘lmaydi. Shuningdek, og‘zaki nutq birlamchi, yozma nutq ikkilamchi ekanligi tan olinadi.

Bundan tashqari, matnga til yoki nutq birligi sifatida qarash masalasiga to‘xtaladigan bo‘lsak, tilda gap tuzish qoidalari bo‘lgani kabi matn yaratishning ham umumiy qoida va qoliplari bor. Shu sababli gap qanday til va nutq hodisasi bo‘lsa, matn ham shunday hodisadir. Matn gapdan yirik kommunikativ birlik bo‘lgani uchun uning tuzilishida o‘ziga xos qonuniyatlar amal qiladi. Matn tuzish qoidalari gap tuzish qoidalariga qaraganda erkinroq, bu esa katta hajmdagi murakkab fikrlarni to‘la bayon qilish imkonini beradi.

Matn tilning alohida va eng yuqori sathi sifatida qaralishi mumkin. Har qanday muloqotning asosiy birligi matndir, chunki to‘liq axborot aynan matn orqali ifodalanadi. Tilning boshqa sathlari birliklari matn tarkibida qatnashadi. Bugungi matn tilshunosligida matn til hodisasi sifatida ham qaraladi va uni til sathining eng yuqori bosqichi deb hisoblash tendensiyasi tobora kuchaymoqda.

XULOSA

Xulosa shuki, matn tushunchasi bo‘yicha tilshunoslar o‘rtasida yakdil fikr yo‘q. Qarashlar matnning shakli, til yoki nutqqa mansubligi va til sathlaridagi o‘rni bo‘yicha farqlanadi. Shu bilan birga, matn ham og‘zaki, ham yozma shaklda bo‘la oladi. Og‘zaki nutq birlamchi, yozma nutq ikkilamchi bo‘lib, yozuv axborotni saqlash vositasi hisoblanadi. Shuningdek, matn ham til, ham nutq hodisasidir va tilning eng yuqori sathiga mansub birlikdir. “Diskurs” termini lingvistik adabiyotlarda aniq chegaraga ega emas va ko‘pincha matnga sinonim sifatida qo‘llanadi. Matnning asosiy belgilari yaxlitlik va kogerentlikdir. Shunga ko‘ra, matnni strukturaviy, mazmuniy va kommunikativ yaxlitlikni o‘zida jamlagan og‘zaki yoki yozma nutq yoxud nutq parchasi sifatida talqin qilish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Москальская О. И. Грамматика текста. – Москва: Высшая школа, 1981.
2. Ляпон М. В. Смысловая структура сложного предложения и текста. – Москва: Наука, 1986.
3. Лосева Л. М. Как строится текст. – Москва: Просвещение, 1980. – С. 4.
4. Гальперин И. Р. Текст как объект лингвистического исследования. – Москва: Наука, 1981.
5. Hakimov M. X. O‘zbek ilmiy matnining sintagmatik va pragmatik xususiyatlari: filol. fan. nomz. ... diss. – Toshkent, 1993.
6. Hojiyev A. Lingvistik terminlarning izohli lug‘ati. – Toshkent: O‘qituvchi, 1985. – B. 88.
7. Mamajonov A. Tekst lingvistikasi. – Toshkent, 1989. – B. 8.
8. Lapasov J. Badiiy matn va lisoniy tahlil. – Toshkent: O‘qituvchi, 1995. – B. 5.
9. Тураева З. Я. Лингвистика текста. – Москва: Просвещение, 1986. – С. 12.
10. Каримова Р. А. Семантико-структурная организация текста (на материале устных спонтанных и письменных текстов): автореф. дис. ... д-ра филол. наук. – Москва, 1992. – С. 6–27.
11. Горшков А. И. Русская стилистика. – Москва: Астрель; АСТ, 2001–2011. – С. 53–58.
12. Бенвенист Э. Уровни лингвистического анализа // Новое в лингвистике. – Вып. 4. – Москва: Издательство иностранной литературы, 1965. – С. 446–447.
13. Блох М. Я. Теоретические основы грамматики. – Москва: Высшая школа, 1986. – С. 47.
14. Каменская О. Л. Текст и коммуникация. – Москва: Высшая школа, 1990.
15. Yo‘ldoshev M., Muhammedova S., Saparniyozova M. – Toshkent: ISHONCHLI HAMKOR, 2021. – B. 23.
16. Дресслер В. Синтаксис текста // Синтаксис текста. – Москва: Наука, 1979.
17. Mamajonov A., Abdupattoyev M. Matn sintaksisi. – Farg‘ona, 2002. – B. 4.